



SOCIAL-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE ISSUE OF GENDER EQUALITY: BASED ON THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Nigora Saydalieva

Associate Professor, Ph.D.

Tashkent State University of Oriental Studies.

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender equality, social equality, legal reforms, philosophical analysis, the experience of Uzbekistan, economic stability, social development.

Received: 02.03.25

Accepted: 04.03.25

Published: 06.03.25

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the concept of gender equality, its social and philosophical aspects. The impact of gender equality on the development of society, its contribution to economic and political stability are considered. Also, the reforms, programs and their results implemented in Uzbekistan on this issue are studied based on scientific approaches. The article provides a comparative analysis of the experience of Uzbekistan with international standards, and discusses existing problems and future prospects.

GENDER TENGLIGI MASALASINING IJTIMOY-FALSAFIY JIHLTLARI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA

Nigora Saydalieva

dotsent, falsafa fanlari nomzodi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: gender tengligi, ijtimoiy tenglik, huquqiy islohotlar, falsafiy tahlil, O‘zbekiston tajribasi, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy taraqqiyot.

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tengligi tushunchasi, uning ijtimoiy va falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Gender tengligining jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistonda ushbu masala bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, dasturlar va ularning natijalari ilmiy yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Maqolada O‘zbekiston tajribasi xalqaro standartlar bilan

qiyosiy tahlil qilinib, mavjud muammolar va kelajakdagi istiqbollar haqida fikr yuritiladi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА: ИЗ ОПЫТА УЗБЕКИСТАНА

Нигора Сайдалиева

Доцент, кандидат философских наук

Ташкентский государственный университет востоковедения.

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендерное равенство, социальное равенство, правовые реформы, философский анализ, узбекский опыт, экономическая стабильность, социальное развитие.

Аннотация: В статье дается глубокий анализ концепции гендерного равенства, ее социальных и философских аспектов. Рассматривается влияние гендерного равенства на социальное развитие и его вклад в экономическую и политическую стабильность. Также на основе научных подходов будут изучены реформы, программы и их результаты, реализуемые в Узбекистане по данному вопросу. В статье дается сравнительный анализ опыта Узбекистана с международными стандартами, обсуждаются текущие проблемы и перспективы на будущее.

KIRISH

Inson atrof-muhitni o'zgartirish jarayoniga nafaqat umuminsoniy mavjudot sifatida, balki o'zining tur sifatidagi turli jihatlari bilan ham qo'shiladi. Bu jarayonda u jinsiy mavjudot sifatida – ayol yoki erkak bo'lib ham ishtirok etadi. Asrlar davomida jins va jinsiy xususiyatlar faqat avlod davomiyligini ta'minlash va oila tashkil etishda muhim rol o'ynaydi degan qarash keng tarqalgan edi. Biroq, asta-sekin erkaklar va ayollar o'ziga xos biosotsial va sotsiomadaniy xususiyatlarga ega bo'lib, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar tizimida turlicha o'rin egallashi tushunila boshlandi: erkaklar cheklovlarsiz faoliyat yurituvchi asosiy subyekt sifatida, ayollar esa, asosan, uy va oila doirasida cheklangan ikkinchi darajali mavqega ega bo'lib. Ushbu hodisa ijtimoiy falsafada "jinsiy ijtimoiy tengsizlik" deb ataladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-falsafiy tafakkurda jinsiy ijtimoiy tenglikka intilish kuchayib bordi. Ushbu g'oya turli nazariy shakllarda namoyon bo'lib, umuman olganda, ayollar va erkaklarni jamiyatning teng huquqli subyektlari sifatida tan olishga yo'naltirilgan edi. Bunga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni ayollar foydasiga o'zgartirish taklif etildi.

Jamiyatda saqlanib qolayotgan jinsiy tengsizlik shuni ko'rsatdiki, tenglik muammolarini an'anaviy "ayollar masalasi" doirasida to'liq hal qilib bo'lmaydi. Jins nafaqat biologik, balki ijtimoiy omil (gender) sifatida ham tan olinishi, shuningdek, u jamiyatdagi eng muhim o'zaro

munosabatlar mezoni sifatida qaralishi natijasida ilmiy nazariya “gender tengligi” tushunchasini shakllantirdi. Uning umumiy ta’rifi shundan iboratki, gender tengligi – bu jamiyat gender jihatdan tabaqalanmagan (gierarxiyasiz) faoliyat tizimi sifatida ishlashi va rivojlanishi sharoitida ayol va erkak genderining hayotiy muhim ijtimoiy faoliyat turlaridagi tengligi hisoblanadi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gender tengligi masalasi bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar Simona de Bovuar–feministik falsafa va gender nazariyasining asoschilaridan biri. Uning “Ikkinchi jins” (1949) asari gender tafakkuriga katta ta’sir ko’rsatgan. Judith Butler – genderni ijtimoiy konstruksiya sifatida tahlil qiluvchi "Gender troubles" (1990) asari bilan mashhur. Nancy Fraser – gender tengligi va ijtimoiy adolat masalalarini iqtisodiy va madaniy kontekstda tadqiq qilgan. Ann Oakley – gender va oilaviy ijtimoiy rollar bo’yicha tadqiqotlar olib borgan. Raewyn Connell – hegemon maskulinlik nazariyasini ilgari surgan va gender ijtimoiy tuzilmasini tahlil qilgan. O‘zbekiston bo’yicha esa quyidagi olimlar Zulayho Umarova – O‘zbekistonning gender siyosati va huquqiy asoslari bo’yicha tadqiqot olib borgan. Gulnora Inomova – gender va ijtimoiy institutlar mavzusida ilmiy ishlar muallifi. Mahbuba Sodiqova – ta’lim tizimida gender tengligi bo’yicha tadqiqot olib borgan.

Maqolada gender tengligi masalasini o‘rganish uchun tahliliy, qiyosiy va statistik metodlardan foydalanildi. O‘zbekistonning gender tengligi bo’yicha qonunchilik bazasi, davlat dasturlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan e’lon qilingan hisobotlar o‘rganildi. Shuningdek, ijtimoiy so‘rovnomalar va rasmiy statistik ma’lumotlar asosida gender tengligining jamiyatga ta’siri baholandi. Qiyosiy tahlil usuli orqali O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajriba bilan solishtirilib, muvaffaqiyatlar va mavjud kamchiliklar aniqlandi. Shu bilan birga, huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalar asosida gender tengligining falsafiy asoslari tahlil qilindi.

NATIJALAR

Gender tengligi masalasi bugungi kunda jahon hamjamiyatida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. U inson huquqlarining ajralmas qismi bo‘lib, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tengligi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti, balki demokratik jamiyat qurishning asosiy mezonlaridan biridir.

O‘zbekiston ham gender tengligini ta’minlash yo‘lida bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Gender tengligi bo’yicha qabul qilingan qonunchilik me’yorlari va davlat dasturlari natijasida ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratish borasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq, ushbu jarayonda duch kelinayotgan muammolarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilash muhim sanaladi[6].

Gender tenglik - jinsiy tenglik yoki jinslar tengligi deb ham ataladi, bu jinsidan qat'i nazar, resurslar va imkoniyatlardan teng foydalanish holati bo'lib, u iqtisodiy hayotda ishtirok etish, qarorlar qabul qilish hamda turli xatti-harakatlar, intilishlar va ehtiyojlarning teng baholanishini o'z ichiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNICEF tashkiloti gender tenglikni quyidagicha ta'riflaydi: Gender tenglik – bu ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar bir xil huquq, resurs, imkoniyat va himoyaga ega bo'lishi holatidir. Bu qizlar va o'g'il bolalar, ayollar va erkaklar aynan bir xil bo'lishi yoki ularga bir xil munosabatda bo'lish kerakligini anglatmaydi. Bunga misol sifatida ta'lim olish imkoniyatlaridagi tengsizlikni keltirish mumkin. Ko'plab mamlakatlarda qizlar va ayollar sifatli ta'lim olish yo'lida turli to'siqlarga duch kelmoqda, bu esa ularning salohiyati va o'zini namoyon qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning yetarlicha ishtirok eta olmasligi ham gender tengsizlikning yorqin misollaridan biridir. Umuman olganda, gender tengsizlik dolzarb muammo bo'lib qolmoqda va gender tenglikka erishish uchun doimiy ish olib borish hamda sa'y-harakatlarni kuchaytirish talab etiladi.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jang'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi.

Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan.

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi[7].

Ta'lim va kasbiy rivojlanishda teng foydalanish gender tengligi umumiy mavzusining muhim qismidir. Biroq, bu sohadagi muammolar va yutuqlar batafsilroq ko'rib chiqishni talab qiladi. Jamiyatda, ayniqsa, ayollarda ta'lim olish imkoniyatlari va martaba ko'tarilishidagi tengsizliklar saqlanib qolmoqda. Bunda nafaqat gender stereotiplari va kamsitishlarga, balki aholining ayrim guruhlari, masalan, kam ta'minlangan oilalar yoki migrantlar uchun ta'lim va

kasbiy imkoniyatlardan cheklangan foydalanishga ham e'tibor qaratish zarur. Teng imkoniyatlar haqida xabardorlikni oshirish, inklyuziv ta'lim muhitini yaratish va qiyinchiliklarga duch kelganlarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish barcha uchun ta'lim va kasbiy rivojlanishdan teng foydalanishga erishishga yordam beradi.

Mehnat haqidagi tengsizlik ayollar bandligiga bevosita ta'sir qiladi va hal etilmagan gender tengsizliklarini namoyon etuvchi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aynan bir xil ishni bajarganlari uchun ayollar erkaklarga nisbatan kamroq maosh oladilar. Ushbu muammo ayollarning umumiy bandlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, gender tengligiga erishishni yanada murakkablashtiradi.

Oila munosabatlari va uy vazifalarida genderning o'zni gender tengligiga erishish kontekstida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda an'anaviy gender rollari tobora yo'qolib bormoqda, bu esa erkaklar va ayollarning oila hayotida va uy ishlarini bajarishda teng ishtirok etishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Gender tengsizligi muammolari ayniqsa oilaviy majburiyatlarni taqsimlashda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki uy ishlari va farzandlar parvarishi hali ham asosan ayollar zimmasida qolmoqda. Biroq, oilaviy munosabatlarning yangi modellarining shakllanishi va sheriklar rollari haqidagi stereotiplarning o'zgarishi tufayli, tobora ko'proq juftliklar uy vazifalarini teng taqsimlash tamoyiliga amal qilmoqda. Bu esa oilaning mustahkamlanishiga, gender tengligining rivojlanishiga va har bir sherikning baxtli bo'lishiga xizmat qiladi.

Ayollar harakati gender tengligi uchun kurashda harakatlantiruvchi kuch bo'lib, uning maqsad va yutuqlari gender tengligiga erishishda katta ahamiyatga ega. Ayollar harakatining asosiy vazifalaridan biri jamiyatda ayollarga nisbatan kamsitish va adolatsizlikni bartaraf etishdir.

Shuningdek, bu harakat ayollarga nisbatan zo'ravonlik, gender stereotiplari va resurslar hamda imkoniyatlardan teng foydalana olmaslik kabi muammolarga e'tibor qaratish uchun kurash olib boradi. Ayollar harakatining muhim yutuqlari qatoriga targ'ibot kampaniyalarini o'tkazish, gender tengligini ta'minlaydigan qonunchilik qabul qilinishini qo'llab-quvvatlash, ayollarni qo'llab-quvvatlash va ularning huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan tashkilot va tarmoqlarni yaratish kiradi. Bu yutuqlar jamiyatda adolat va gender tengligini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Gender tengsizlik nafaqat ijtimoiy muammo, balki ayollar salomatligi va xavfsizligiga ham ta'sir qiladi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mehnatga haq to'lash, ta'lim olish, siyosiy va iqtisodiy hayotda teng ishtirok etishdagi tengsizlik ayollar salomatligi uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Misol uchun, ta'lim va resurslardan foydalanishning cheklanganligi qashshoqlikka olib kelishi mumkin, bu esa o'z navbatida to'yib ovqatlanmaslik va tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatining etishmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, gender tengsizligi ayollarga nisbatan

zo‘ravonlik xavfini ham oshiradi. Genderga asoslangan zo‘ravonlik oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik va sherik zo‘ravonligini o‘z ichiga oladi. Zo‘ravonlikning bu shakllari jabrlanuvchiga nafaqat jismoniy va ruhiy zarar yetkazadi, balki uning salomatligi va farovonligiga ham uzoq muddatli oqibatlariga olib keladi. Gender tengsizligi va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish barcha uchun xavfsizroq va sog‘lom jamiyatlarni yaratadi[2].

Gender tengligiga erishish bo‘yicha xalqaro va milliy tashabbuslar ushbu muammolarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Dunyo bo‘ylab ko‘plab tashkilotlar va hukumatlar erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlar va huquqlarni ta‘minlashga intilmoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi eng muhim yutuqlardan biri — ayollarga nisbatan har qanday zo‘ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishga bag‘ishlangan birinchi xalqaro hujjat — Istanbul konventsiyasining qabul qilinishidir. Milliy tashabbuslar doirasida esa mamlakatlar gender tengligini mustahkamlashga qaratilgan qonun va siyosatlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etmoqda. Shunga qaramay, sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsa ham, gender tengligini to‘liq amalga oshirish yo‘lida hali ko‘p ishlar qilinishi kerak.

Kelajakda gender tengligini rivojlantirish imkoniyatlari nihoyatda katta va istiqbolli. Hali ham muammolar va qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlashga qaratilgan siyosat va tartiblarning joriy etilishi, shuningdek, stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarni bartaraf etish gender tengligiga erishish yo‘lidagi muhim yutuqlardan biri bo‘ldi. Ta‘limga katta e‘tibor qaratilib, u gender ongli jamiyatni shakllantirishda asosiy omil sifatida ko‘rilmoqda.

Kelajakda diskriminatsiyani yo‘q qilish va barcha insonlar uchun ularning jinsi yoki jamiyatdagi o‘rnidan qat‘i nazar, teng imkoniyatlarni ta‘minlash ustida ish olib borish zarur. Gender tengligini ilgari surish jamiyatning ijtimoiy ehtiyoji bo‘libgina qolmay, balki har bir insonning rivojlanishi va jamiyatning gullab-yashnashiga xizmat qiluvchi strategik maqsad hamdir. Gender tengligi uchun kurashish muhim bo‘lib, gender insonning oiladagi rolini va uy vazifalarini taqsimlashni belgilovchi omil bo‘lmasligi kerakligi haqidagi tushunchani shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Bir xil ish uchun kamroq maosh olish ayollarning ma‘lum kasblar bilan shug‘ullanish motivatsiyasiga ta‘sir qiladi, shuningdek, iqtisodiy qaramlik va ijtimoiy zaiflikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mehnat haqidagi tengsizlikni bartaraf etish jamiyatda to‘liq gender tengligiga va adolatga erishish yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir.

Gender tengligining ijtimoiy jihatlari Gender tengligi jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, iqtisodiy va madaniy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash va ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirish

maqsadida turli dasturlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ishtiroki oshmoqda.

1-jadval


O‘zbekistonda so‘nggi 5 yilda gender tengligi bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar

Yil	Qonunchilik islohoti	Asosiy natijalar
2019	Gender tenglik qonuni qabul qilindi	Ayollarning huquqlari mustahkamlandi
2020	Xotin-qizlar uchun kredit dasturlari	5000+ ayol tadbirkor kredit oldi
2021	Ta’limda gender strategiyasi ishlab chiqildi	Ayollar OTMga kirish darajasi oshdi
2022	Gender zo‘ravonlikka qarshi chora-tadbirlar	Himoya markazlari ochildi
2023	Gender tengligi bo‘yicha davlat dasturi	Mehnat bozorida ayollarga imkoniyat kengaydi

Gender tengligining falsafiy nuqtai nazardan gender tengligi inson erkinligi va adolat printsiplariga asoslanadi. U jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish tamoyilini ilgari suradi. O‘zbekistonda gender tengligi davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilmoqda.

1-diagramma

Mehnat bozorida ayollar ishtiroki (so‘nggi 5 yillik)



Gender tengsizlik nafaqat ijtimoiy muammo, balki ayollar salomatligi va xavfsizligiga ham ta'sir qiladi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mehnatga haq to‘lash, ta’lim olish, siyosiy va iqtisodiy hayotda teng ishtirok etishdagi tengsizlik ayollar salomatligi uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Misol uchun, ta'lim va resurslardan foydalanishning cheklanganligi qashshoqlikka olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida to‘yib ovqatlanmaslik va tibbiy xizmatdan foydalanish

imkoniyatining etishmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, gender tengsizligi ayollarga nisbatan zo‘ravonlik xavfini ham oshiradi. Genderga asoslangan zo‘ravonlik oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik va sherik zo‘ravonligini o‘z ichiga oladi. Zo‘ravonlikning bu shakllari jabrlanuvchiga nafaqat jismoniy va ruhiy zarar yetkazadi, balki uning salomatligi va farovonligiga ham uzoq muddatli oqibatlariga olib keladi. Gender tengsizligi va ayollarga nisbatan zo‘ravonlikni bartaraf etish barcha uchun xavfsizroq va sog‘lom jamiyatlarni yaratadi.

Hokimiyat va boshqaruv organlarida ayollar ulushining oshishi ayollarning o‘z mavqeini yaxshilashiga, davlatning ijtimoiy siyosatini kengaytirishga va an‘anaviy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishga xizmat qildi. Hukumat darajasida gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchilarning ishtiroki ziyolilar, xabardor jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining e‘tiborini tortmoqda. Bu esa masalalarning oldinga siljishi uchun zarur ta’sirni ta’minlamoqda.

Gender tengligi strategiyasining muvaffaqiyati barcha manfaatdor tomonlarning mahalliy va mintaqaviy darajada sa’y-harakatlarini birlashtirish bilan izohlanadi [6].

Ayollarning siyosiy vakilligi va “ayollarga qulay” ijtimoiy siyosat o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlikka misol sifatida mahalliy hokimiyat vakillarining katta qismini ayollar tashkil etadigan shaharlardagi bolalar muassasalari tizimini keltirish mumkin. Jamoat bolalar bog‘chalari va maktabgacha ta’lim markazlari haftasiga 20 soat ishlaydigan yoki tahsil olayotgan ota-onalar uchun ochiq, ularning moliyalashtirilishi asosan davlat subsidiyalari hisobidan amalga oshiriladi, ota-onalar esa faqat kichik bir qism to‘lovni amalga oshiradilar [4].

Fransiyada oilaviy qadriyatlarga qaytish ijtimoiy-demokratiya mafkurasi va davlatning ijtimoiy masalalarga ustuvor e‘tibori bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Davlatning gender tengligini ta’minlash bo‘yicha faolligi ayollar harakati bosimiga javob sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, “quyi” darajadagi talab va gender perspektivasini integratsiya qilishga qaratilgan “yuqori” darajadagi siyosatning o‘zaro ta’siri natijasi edi.

Ayollarning qaror qabul qilish sohalariga muvaffaqiyatli kirib kelishi mustaqil ayollar harakatining o‘rnini bosuvchi omil sifatida ko‘rilmaydi. Aksincha, uning faollashtiruvchi kuchi davlat va siyosiy tashkilotlarning asosiy yo‘nalishlarida samarali harakatlarni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim omil sifatida baholanadi.

Davlat hokimiyat organlarida gender paritetining ta’minlanishi davlat tomonidan ayollarga qulay bo‘lgan ijtimoiy siyosat yuritilishiga hamda jamiyatda erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

Gender tengligini ta’minlash jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, huquqiy islohotlar, iqtisodiy dasturlar va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar orqali gender tengligiga erishish mumkin. Biroq, ayollarning siyosiy

jarayonlardagi ishtirokini oshirish va gender stereotiplarini bartaraf etish bo'yicha qo'shimcha choralar talab etiladi.

XULOSA

Gender tengligi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda bu borada sezilarli natijalarga erishilgan bo'lsa-da, hali ham hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud. Kelgusida gender tengligini yanada rivojlantirish uchun huquqiy bazani kuchaytirish, ta'lim tizimini rivojlantirish va mehnat bozorida ayollarning ishtirokini oshirish zarur. Shu bilan birga, gender tengligini targ'ib qilish va gender stereotiplarini kamaytirish maqsadida ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari faoliyatini kengaytirish lozim. Davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida gender muammolariga yechim topish bo'yicha qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazilishi talab etiladi. Gender tengligi nafaqat huquqiy masala, balki ijtimoiy madaniyatning ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
2. Gender i kultura. – Dushanbe: Aziya-plyus, 1999.
3. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva, 1985.
4. Money, John. Hermaphroditism: An Inquiry into the Nature of a Human Paradox. Thesis (Ph.D.), Harvard University press. 1952.
5. Stoller R. J. Sex and Gender: The Development of Masculinity and Femininity. – United Kingdom: Routledge, 1994.
6. Zdravomislova Ye.A., Temkina A.A. Sotsialnoe konstruirovaniye gendera. Sb. "Vozmojnosti ispolzovaniya kachestvennoy metodologii v gendernix issledovaniyax". – Moskva, 2001
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gender_tengligi
4. <http://www.gender-cent.ryazan.ru/lecturers.htm#blohina>